

Ta'mirlash ishlarini amalga oshirish haqida

ShARTNOMA № K-12

2022 yil «16» iyun

Farg'ona shahri

Ikki tomonlama xo'jalik munosabatlarini ifodalovchi mazkur shartnoma O'zbekiston Respublikasi Qonunchiligi xamda o'z Nizomiga asosan faoliyat yurituvchi Fargona shaxar maktabgacha ta'lim bo'limi nomidan raxbar N.Irgasheva (kelgusida «Buyurtmachi» deb ataladi) birinchi tomondan va o'z Nizomi asosida ish yurituvchi "JAVLON MASTER STROY" XK (keyingi o'rinlarda «Pudratchi» deb ataladi) nomidan rahbar J.Mamadjonov ikkinchi tomondan, mazkur shartnomani quyidagi ishlarni bajarish uchun tuzildilar:

1. ShARTNOMA PREDMETI.

1.1. «Pudratchi» mazkur shartnoma shartlariga asosan: Fargona shaxar maktabgacha ta'lim bulimi tasarrufidagi 34-sonli maktabgacha ta'lim tashkiloti binosini joriy ta'mirlash bo'yicha loyixa-smeta xujjatlarida nazarda tutilgan tartibda bajarish majburiyatini oladi, «Buyurtmachi» esa bajarilgan ishlarni belgilangan tartibda qabul qilib oladi.

2. ShARTNOMA BAXOSI.

2.1. Mazkur shartnoma bo'yicha «Pudratchi» tomonidan bajariladigan ta'mirlash ishlari qiymati loyixa-smeta xujjatlariga asosan QQS ni o'z ichiga olgan holda jami 283 016 851.00 (ikki yuz sakson uch million o'n olti ming sakkiz yuz ellik bir) so'mni tashkil etadi.

2.2. Zaruriy asoslar mavjud bulganda «Buyurtmachi» va «Pudratchi»ning kelishuviga asosan mazkur shartnomaga qo'shimcha bitim rasmiylashtirilishi mumkin.

3. XISOB-KITOB QILISH TARTIBI

3.1. «Pudratchi» tomonidan ta'mirlash ishlari to'lik bajarilgandan so'ng, uzaro solishtiruv dalolatnomalariga asosan, bajarilgan ishlari qiymati uchun «Buyurtmachi» pul o'tkazish yo'li bilan to'lovni amalga oshiradi.

3.2. «Buyurtmachi» oldindan shartnoma umumiy summasini 30 % miqdorida avans to'lovini «Pudratchi» xisob raqamiga uo'tkazib beradi. Keyingi xisob-kitoblar xaqiqatda bajarilgan ishlar xajmiga qarab, avans mablaglarini xisobga olgan xolda amalga oshiriladi.

4. ISHLARNI BAJARISH TARTIBI VA MUDDATLARI.

4.1. «Buyurtmachi» tomonidan oldindan to'lov amalga oshirilgan kundan boshlab «Pudratchi» tomonidan ta'mirlash ishlari boshlanishi shart. Bajarilishi lozim bulgan ishlar 30 kun muddatda to'lik yakunlanishi kerak.

4.2. «Pudratchi» bajariladigan ishlarni amaldagi qurilish qoidalari va me'yorlari talablariga muvofiq bo'lishini va sifatli bajarilishini ta'minlaydi.

4.3. «Pudratchi» ishlarning bajarilishini texnika xavfsizligi, mexnat muxofazasi va yongin xavfsizligi talablariga rioya qilgan xolda amalga oshiradi.

5. TOMONLARNI XUQUQ VA MAJBURIYATLARI.

5.1. «Pudratchi» mazkur shartnomada nazarda tutilgan ta'mirlash ishlarini to'liq xajmda va belgilangan muddatlarda bajarish majburiyatini oladi.

5.2. «Buyurtmachi» ta'mirlash ishlari jarayonida bajarilayotgan ishlarni loyixa-smeta xujjatlariga mosligini va sifatini nazorat qilib boradi.

5.3. «Buyurtmachi» tomonidan «Pudratchi»ga ta'mirlash ishlarini bajarish uchun zarur sharoitlar yaratib beriladi va bajarilgan ishlar bo'yicha tuzilgan Shakl-2 dalolatnomalarini qabul qilib oladi.

5.4. Bajarilgan ishlarda kamchilik va nuqsonlar aniqlangan taqqdirda, «Buyurtmachi» tomonidan dalolatnoma rasmiylashtiriladi va 10 kun muddatda «Pudratchi»ga xabar yuboriladi. «Pudratchi» tomonidan ushbu aniqlangan kamchilik va nuqsonlar o'z mablagi va o'z kuchi bilan 10 kun davomida bartaraf etiladi.

6. JARIMALARNI QO'LLANILISHI.

6.1. Tomonlardan biri shartnoma shartlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan taqqdirda aybdor tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zararni to'liq qoplaydi.

6.2. Agar «Pudratchi» tomonidan bajarilishi lozim bulgan ta'mirlash belgilangan muddatlarida boshlanmasa va yakunlanmasa, «Pudratchi» bajarilmagan ishlar qiymatini 0.05% miqdorida har bir muddati o'tgan kuni uchun «Buyurtmachi»ga jarima to'laydi, lekin bunda jarimaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar qiymatini 50% dan oshmasligi kerak.

6.3. «Pudratchi» tomonidan ta'mirlash ishlari belgilangan muddatlarda yakunlangandan keyin «Buyurtmachi» tomonidan to'lovlar o'z muddatida amalga oshirilmasa to'lanmagan summani 0.04% miqdorida har bir muddati o'tgan kun uchun «Pudratchi»ga jarima to'laydi, lekin bunda jarimaning umumiy summasi o'tkazib berilmagan mablaglar summasini 50% dan oshmasligi kerak.

6.4. Jarimalar to'lanishi «Pudratchi»ni shartnomada belgilangan majburiyatlarini bajarishdan ozod etmaydi.

7. FORS-MAJOR XOLATLARI.

7.1. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmaligi tabiat xodisalari, urush, ommaviy tartibsizliklar va boshqa yengib belmas kuch xolatlari natijasida kelib chiqsa, tomonlar javobgarlikdan ozod etiladilar.

8. QO'SHIMCHA ShARTLAR.

8.1. Ushbu shartnomani bajarish, o'zgartirish va uni bekor qilishda paydo bo'ladigan nizolar eng avvalo taraflarning kelishuvi bilan hal qilinadi. O'zaro kelishilmasa mavjud nizolar "Buyurtmachi" joylashgan manzildagi tumanlararo iqtisodiy sud tomonidan O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchilik hujjatlari tartibda hal qilinadi.

8.2. Shartnoma taraflarning o'zaro kelishuviga asosan yoki O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga xamda amaldagi qonunchilik hujjatlari normalariga binoan keltirilgan zararni to'lagan xolda muddatidan ilgari bekor qilish mumkin.

8.3. Ushbu shartnoma 2022 yil «16» iyundan 2022 yil «31» dekabrgacha tuzildi. Shartnoma ikki tomonlama imzolanib, g'aznachilik bo'lim)da ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng qonuniy kuchga kiradi.

9. KORRUPSIYAGA QARSHI QO'SHIMCHA SHARTLAR

10.1. Taraflar shartnoma tuzishda, shartnomaning amal qilish muddatida va ushbu muddat tugaganidan so'ng, shartnoma bilan bog'lik korrupsiyaviy harakatlarni sodir qilmaslikka kelishib oladilar.

10.2. Taraflar shartnomadagi korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarda belgilangan korrupsiyaning oldini olish choralarni tan oladi va ularga rioya etilishi bo'yicha xamkorlikni ta'minlaydilar.

10.3. Har bir taraf shartnoma tuzilgan paytda bevosita o'zi yoki uning ijroiya organlari, mansabdor shaxslari va xodimlari tomonidan shartnoma bilan bog'lik munosobalar yuzasidan qonunga xilof ravishida pul, moddiy qiymatliklar berilmaganligini, shartnoma tuzilishi evaziga norasmiy pul yoki boshqa moddiy qiymatliklar olinishga yo'l qo'yilmaganligini, taklif etilmaganligini, ularni berishga va'da qilinmaganligini, shuningdek moddiy yoki har qanday turdagi imtiyoz, ustunliklar olinmaganligini (kelajakda bu turdagi harakatlarni amalga oshirishi mumkinligi haqida taassurot qoldirmaganligini) kafolatlaydi.

Taraflar, ular tomonidan shartnoma doirasida jalb qilingan shaxslarning (yordamchi pudratchi tashkilotlar, agentlar va taraflar nazorati ostidagi boshqa shaxslarning) yuqoridagi harakatlarni sodir etmasligi yuzasidan oqilona choralar ko'radi.

10.4. Ushbu holat bo'yicha bir taraf ikkinchi tarafni hamda vakolatli davlat organlarini darhol xabardor qilishi shart.

10.5. Tarfning talabi bo'yicha ikkinchi taraf tomonidan qoidabuzarliklarni bartaraf qilish bo'yicha oqilona muddat ichida tegishli choralar ko'rilmagan yoki ko'rib chiqish natijalari haqida xabardor qilmagan taqdirda, ushbu taraf shartnomani bir tarafdama to'xtatib turishga, bekor qilishga hamda zararni to'liq qoplab berishni talab qilishga haqli

10. TOMONLARNI HUQUQIY MANZILI VA REKVIZITLARI

Tomonlarning yuridik manzili va rekvizitlari:

«Pudratchi»

"JAVLON MASTER STROY" XK

Manzil: :Fargona shahar Oq ariq ko'chasi 326 "a" uy

Tel./Faks +998 90 407 37 33

x/r 20 208 000 905 000 912 001

Bank nomi "Aloqa bank" Toshkent bo'limi

MFO00401 STIR 302387498 IFUT(okonx) 71280

«Buyurtmachi»

Fargona shahar Maktabgacha ta'lim bo'limii

Manzil: Fargona shahar Nurafshon ko'chasi 15uy

Tel./faks 73 244 91 88

Shhv 401722860304017091100251012

Tashkilotning STIRi 305153264

IFUT(okonx) 85100

Farg'ona shaxri bo'yicha G'aznachilik bo'linmasi

x/r 23 402 000 300 100 001 010

Bank nomi: Markaziy bankning Toshkent shahar Bosh boshqarmasi Hisob-kitob-kassa markazi (HKKM)

MFO:00014 G'aznachilik bo'linmasining

STIR: 201122919

Buyurtmachi rahbari

N.Irgasheva

Rahbar



(lavozimi) (F.I.O.)



(imi)

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUNCHILIK
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI HAQIDA
HUQUQIY XULOSA
№ QX0866873511**

1. Loyihaning turi: Shartnoma № K-12.

2. Loyihaning nomi: Ta'mirlash ishlarini amalga oshirish haqida.

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va "E-huquqshunos" elektron tizimiga kiritilgan sana haqidagi ma'lumot: Shartnoma loyihasi Farg'ona shahar Maktabgacha ta'lim bo'limi va "JAVLON MASTER STORY" XK o'rtasida 2022-yil 16-iyun kuni ishlab chiqilgan va 2022-yil 16-iyun kuni "E-huquqshunos" elektron tizimi orqali huquqiy ekspertizaga taqdim etilgan.

4. Loyiha bo'yicha taklif:

Mazkur shartnoma loyihasi O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuni va boshqa qonunchilik hujjatlari asosida huquqiy ekspertizadan o'tkazilib:

Shartnoma loyihasining amaldagi qonunchilik hujjatlari talablariga javob berishini va qonunchilikka mos holda tuzilganligi;

tomonlarning shartnomada ko'rsatilgan mulkiy javobgarliklari va o'zaro nizolarni hal qilish yo'llari O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi hamda "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuni asosida belgilanganligi aniqlandi.

Yuqoridagilarni inobatga olib, huquqiy ekspertizadan o'tkazish natijalariga ko'ra,

X U L O S A:

Shartnoma loyihasi amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Markaz bosh yuriskonsulti:



X.Soburov

16.06.2022